



**"TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING XIZMATLARI
ISTIQBOLLARI"**

Raxmatova Shaxnoza Rustamovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Navoiy Akademik litseyi Monitoring rahbari, Osiyo Xalqaro
Universiteti magistranti

Annotatsiya: Raqamli bank — innovations bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Ushbu maqola doirasida "ANOR BANK" AJ faoliyati misolida "Raqamli bank" tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz hamda raqamli bank xizmatlarining ayni damdagi holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an'anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli banking, raqamli bank, raqamli innovatsiyalar, mobil ilova, an'anaviy bank, aloqa markazlari, online kredit, online omonat.

KIRISH

Bank xizmatlarini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy masalalaridan biri ekanligi, ayniqsa butun dunyo bo'ylab hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham yaqqol yuzaga chiqdi. Prezidentimiz bank tizimiga to'xtalar ekan, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bank mahsulotlari va dasturiy ta'minotni joriy etish bo'yicha zamonaviy talablardan ortda qolmoqda", deya ta'kidlagan. Bunda biz raqamli bank xizmatlarini ishlab chiqilishi kerak bo'lgan masala sifatida tan olishimiz zarur. Muhim masalalardan biri bu foydalanuvchilarning bank tizimiga ishonchini oshiradigan va qulay xizmatlarni taklif etadigan raqamli bank tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovations bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatlarini ko'rsatmasdan) masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank yoki uning sho'ba korxonasi raqamli bank hisoblanadi. Bu butun bank yoki bank filialiga berilgan ta'rifdir. Raqamli banking bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga bank mahsulotlarini onlayn tarzda taqdim etish uchun dasturiy ta'minot to'plami sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

A.A.Gontarning ta'kidlashicha, "Raqamli banking - bu bank va uning mijozlari o'rtaсидаги о'заро муносабатлarning yangi shakli, shu jumladan raqamli, axborot va texnologiya strategiyalari sohasidagi iste'molchilar va tijorat mijozlari uchun molivayi xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar".

Tadqiqotchi olimlardan Suchat Tungjitnob, Kitsuchart Pasupa, Boontawee Suntisrivaraporn o'z tadqiqot ishlari "Mobile banking" to'g'risida quyidagi fikrlarni



bildirib o'tganlar "Bank mijozlari banklarning mobil ilovalari (mobile banking) yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtida bank operatsiyalarini darhol amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, mobil banking ilovasi qo'shimcha filiallarni ko'paytirish xarajatlarini kamaytiradi. Bank, shuningdek, ilovadan mijozlar ma'lumotlarini olishdan foyda oladi".

"Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, elektron banking operatsion xarajatlarni kamaytiradi va shuning uchun banklar uchun katta foyda keltiradi. Raqamli banking daromad olish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qo'shimcha foizsiz manbalardan daromad keltiradi. Qulay bo'lgan elektron bank xizmatlari va mahsulotlarining joriy etilishi banklarga bo'lajak mijozlarni jalg qilish imkonini berdi va bu ularning bozordagi ulushini oshirish imkonini berdi".

O'zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi 2018-yildan boshlab kiritilgan bo'lib, "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida" Nizomning birinchi bandida raqamli bankka quyidagicha ta'rif berilgan:

"Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bankning ichki tartib qoidalariiga asosan qonun hujjalari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi".

O'zbekistonda ilk bor "ANOR BANK" AJ 2020-yil sentyabr oyidan raqamli bank sifatida birinchi onlayn xizmatlarini ishga tushirgan hamda hozirgi kunda bir qator zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo'ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridaq raqamlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo'naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an'anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar
2. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 217-219.



3. Маткулиева, С., & Атабаева, К. (2022). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ОТРАСЛЕЙ И ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ. *Scientific progress*, 3(2), 360-363.
4. Шеров, А. (2017). Олий таълим муассасаларига бюджетдан ташқари маблағларни жалб этишни такомиллаштириш. "Biznes-Эксперт", (3 (111)), 3.
5. Gontar A.A. Digital banking as one of the components of the economic security of a credit organization// Bulletin of the Volzhskiy University im. VN Tatishcheva. – 2017. – T.1. - no. 4
6. А. Б. Шеров, & Ш. Б. Юсупов (2021). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ В СТРАНЕ. *Scientific progress*, 2 (1), 605-609.